

“Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari” nomli monografiya nashr etildi

O‘zR FA Tarix instituti Tarixshunoslik va manbashunoslik markazi boshlig‘i, t.f.d. Nigora Allayeva muallifligida Xiva xonligining XVI asr – XIX asrning 70-yillarida qo‘shni Buxoro, Qo‘qon va Qozoq xonliklari hamda Eron davlati bilan diplomatik munosabatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan “Xiva xonligi diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI - XIX asrlar)” nomli monografiya nashr etildi.



Monografiyada XVI boshlarida mintaqada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va xalqaro maydondagi kuchlar nisbati singari tashqi omillarning Xorazmdagi ichki ijtimoiy-siyosiy holatga ta’siri tahlil etilgan. Xususan, Xiva xonligining tashkil topish jarayonida Xorazmning Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Eron bilan an’anaviy aloqalari ko‘rib chiqilgan. Unda Xiva xonligining so‘nggi o‘rta asrlarda Buxoro va Qo‘qon xonliklari, Qozoq juzlari hamda Eron davlati bilan o‘zaro aloqalari tarixini kompleks tadqiq etish hamda “global tarix” kontekstida yoritish orqali fanda mavjud bo‘lib kelgan Xiva xonligiga “tashqi dunyodan uzilib qolgan, izolyatsiya holatidagi qoloq davlat” sifatida qarashni inkor etuvchi xulosalar chiqarilgan. Ishda fors va turkiy tillardagi tarixiy asarlar hamda Eron, Rossiya, O‘zbekiston arxiv fondlaridagi ko‘plab fors, turkiy va rus tillaridagi rasmiy hujjatlar, jumladan, Eron hukmdorlari Abbas I, shoh Safi va Muhammadshoh tomonidan Xiva xonlari Arab Muhammadxon, Isfandiyorxon, Abulg‘ozixon va Olloqulixonga, shuningdek, Qo‘qon hukmdori Sulton Sayyidxonning Xiva xoni Sayyid Muhammadxonga hamda Buxoro shahzodasi Abdumalik Katta to‘raning Muhammad Rahimxon II ga yozgan maktublari asosida Xorazmning geostrategik

ahamiyati, qo'shni hududlar va turli chet davlatlar bilan o'zaro savdo-diplomatik aloqalari singari bahsli va kam o'rganilgan masalalari tahlil etilgan.

Monografiyada turli davlatlar va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan muloqotning maxsus qoidalari, jumladan, diplomatik marosim (tseremonial), protokol va etiket tushunchalariga izoh berilib, Xiva xonligida amal qilgan "qabul marosimi"ning umumiy va xususiy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Xiva xonlari saroyida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimi, uning asosiy tartib-qoidalari hamda diplomatik etiketning muhim jihatlari yoritib berilgan. Unda diplomatik aloqalarning asosiy mexanizmi hisoblangan "elchilik xizmati", uning rivojlanish bosqichlari va muhim detallari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Xiva hukmdorlarining Buxoro, Qo'qon va Qozoq xonlari hamda Eron shohlari bilan o'zaro almashinilgan diplomatik yozishmalarni turi va xarakteriga ko'ra tasniflashga ham e'tibor qaratilgan. Ishda, mahalliy "Solnomalar"da umumiy nom bilan "maktub, noma, maktubot" yoki "kotibat" deb yuritilgan xatlarning vaziyatga qarab "inoyatnoma", "istimolatnoma", "ma'ziratnoma", "muvoilatnoma", "murosila", "muhabbatnoma", "sulhnoma", "tahniyatnoma", "fathnoma" singari turlari bo'lganligi ko'rsatib berilgan. Xiva xonlari saroyida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimini tasvirlash hamda Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon va Muhammad Rahimxon II singari hukmdorlarning shaxsiy jihatlari yoritish orqali ularning kuchli yetakchilik qobiliyatlari ochib berilgan.

Qo'shni davlatlar tarixiga bag'ishlangan tarixiy asarlar va turli rasmiy hujjatlarni tahlilga tortish orqali Xiva xonligining eng kam o'rganilgan qismi, ya'ni, Arabshohiylar sulolasining hukmronlik davri (1511-1700) tarixi bir qator yangi materiallar, xususan, Arab Muhammadxon, Isfandiyorxon, Abulg'ozixon va Anushaxonlarning davlat boshqaruvi hamda tashqi aloqalariga doir mahalliy manbalarda uchramaydigan noyob ma'lumotlar asosida ochib berilgan.